

O'qituvchi har bir guruhdan keyingi dars boshida guruh tomonidan bajarilgan kompozitsiyani taqdim etadigan, loyiha mavzusi, tanlangan jonzotlar va sabablarini, tanlangan materiallar va ularning tanlanish sabablarini tushuntirib beradigan spiker tanlanishi kerakligini aytadi.

10-dars. Gullar

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarni yangi turdagি material - naycha bilan tanishtirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish ko'nikmasini rivojlantirish;
- atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatni shakllantirish va resurslarni tejash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish (juftlikda ishlash, faol tinglash ko'nikmalari, o'z fikrlarini ifodalay olish, suhbat olib borish, maqsad qo'yish va unga erishish qobiliyati).

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, naycha, qaychi, yelim, darslik, buyum namunasi..

Tashkiliy qism (10 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

O'qituvchi o'quvchilar guruhlarda mustaqil ravishda bajargan loyiha taqdimoti uchun har bir guruhdan vakil taklif qiladi. O'quvchilar kompozitsiyani namoyish etib, uning mavzusi va bajarish uchun tanlangan materiallar haqida so'zlab beradilar (har bir guruhning chiqishi uchun 2 daqiqa).

O'qituvchi bugungi darsda o'quvchilar allaqachon tanish bo'lgan rangli qog'oz va yangi material - kokteyl naychasi bilan ishlashni davom ettirishlari kerakligini ma'lum qiladi.

O'qituvchi savollar beradi:

Naychalar qanday materialdan tayyorланади?

Har kuni kafe, restoranlar, tez ovqatlanish tarmoqlari ichimliklar bilan birga juda ko'p naychalarni beradi. Bu sharbat va kokteyllardan qolgan naychalarining barchasi axlat to'planadigan joylarda to'planib qolmoqda.

Sizningcha, plastmassa naychalardan foydalanish atrof-muhit uchun qanday muammo tug'diradi?

Ilgari qanday plastik buyumlar bilan ishlagansiz?

Bu buyumlarga qanday qayta foydalanish yo'llarini topdingiz?

O'qituvchi kokteyl naychalaridan tayyorlangan turli xil buyumlarni namoyish etadi.

O'qituvchi darslikning 24-25-betlariga qarab, bu darsda naychadan nima yasash kerakligini aytib berishni taklif qiladi.

Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darslikda ishning ikki varianti keltirilgan. O'quvchilar ulardan istalganini tanlashlari mumkin. Yoki xohishlariga ko'ra ikkalasini ham bajarishlari mumkin.

Darsning bu qismi tuzilma bo'yicha odatdagidek o'tkaziladi. Darslikda o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin bo'lgan video yo'riqnomasi keltirilgan.

Amaliy qism (15 daqiqa).

O'qituvchi ishni baholash mezonlarini aytadi. Ish mustaqil bajariladi. Zarur hollarda o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

Yakunlash va refleksiya (10 daqiqa).

Darsning bu qismi tuzilma bo'yicha odatdagidek o'tkaziladi.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning yutuqlarini baholaydi.

11-dars. Ayyor tulki

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarni materialning yangi turi - bir martalik stakan bilan tanishtirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish ko'nikmasini rivojlantirish;
- atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatni shakllantirish va resurslarni tejash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ijodiy fikrlash va loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish.